

ADABIYOT NAZARIYASI

Temirova Sarbina-Bonu

Mirsoliyeva Durdona

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti

Farg'ona mintaqaviy filiali Qo'g'irchoq teatr aktyorligi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Adabiyotshunoslik fanining bir bo'limi hisoblangan Adabiyot nazariyasi o'z ichiga ilm-fanning juda ham muhim va kerakli bo'lgan xususiyatlarini, ya'ni detallarini qamrab olgan. Adabiyot nazariya o'zi nima, Adabiyot nazariyasi o'zi nima o'rganadi va shunga o'xshash savollarning javoblari haqida quyida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, qonuniyatlari, ahamiyati, hayotida, jamiyat, fan, badiiy, adabiyot, tutgan, nazariya, asoslanib, ijodiy, san'at, namoyon, g'oya, ajratib, hodisa, shakl, shoirlik, asar, haqiqiy, maxsus, sohalar, mustaqil, qofiya, bois, mumtoz, drama, syujet.

Adabiyot nazariyasi — adabiyotshunoslik fanining bir bo'limi. Badiiy adabiyot, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, yaratilish qonuniyatlari, taraqqiyot yo'llarini, badiiy asarning tasviriy hamda ifoda vositalari, tarkibiy qismlari, adabiy turlar va janrlarini o'rganadi. Adabiyot nazariyasi badiiy so'z san'atining ijodiy tajribalariga asoslanib, o'zining barcha nazariy xulosalarini yaxlit bir davr yoki davrlarning badiiy so'z mahsuli hamda ayrim badiiy asarlarining tahlilidan, tarixiy-adabiy jarayonni o'rganishdan keltirib chiqaradi. Badiiy adabiyotni bevosita yaratuvchilarning adabiy ijod haqida aytgan fikrlari ham Adabiyot nazariyasi tomonidan e'tiborga olinadi, ammo bu borada Adabiyot nazariyasi badiiy ijod tajribalari-da tasdiqlangan ijodiy haqiqatlarga 175murojaat qilib boradi. Adabiyot nazariyasi adabiyotning boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqli jihatlarini ham belgilab beradi. San'at turi sifatida adabiyotning uziga xosligi uning so'z vositasida ob-raz yaratishida ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham Adabiyot nazariyasi da badiiy, obrazli tasvir va ifoda masalalari ham o'rganiladi.

Badiiy adabiyotda mazmun bilan shakl bir-ligi va mutanosibligi Adabiyot nazariyasi ning bosh ma-salasidan biri hisoblanadi. Mazmunsiz shakl bo'lmaganidek, shaklsiz mazmun ham bo'lmaydi. Har qanday shakl mazmunlash-ganidek, har qanday mazmun shakllash-gandagina to'la voqe bo'ladi. Mazmun — badiiy asarning hamma qismlarini belgilovchi, uyushtiruvchi asos. Badiiy adabiyotda mazmun — jonli hayot, uning xilma-xil qirralari, murakkabligi, boyligi va go'zalligidir. Har qanday g'oya badiiy asarning mazmunini tashkil eta olmaydi, u faqat badiiy xususiyatga ega-ligi,

inson, jamiyat uchun ahamiyatliliigi bilan barchani qiziqтира olgan g'oyalargina badiiy asar mazmunini tashkil etadi. Badiiy shakl ham mazmunga nisbatan farqsiz hodisa emas. Chunki har qanday g'oya hayotning o'zida aniq hayotiy hodisa shaklida namoyon bo'ladi, bu hodisaning shaklini mazmundan ajratib bo'lmaydi. Binobarin, har qanday badiiy g'oya o'ziga mutanosib badiiy shakldagina o'z mohiyatini to'la namoyon etadi. Alisher Navoiy „Hamsa“da o'z zamonida shoirlik da'vo qilib yurgan ko'plab kishilarning shakl bobidagi no'nokligini qoralaydi. Chunki, faqat shakli mazmuniga to'la mos bo'lgan asargina haqiqiy badiiy asar bo'la oladi. Shuning uchun ham Adabiyot nazariyasi badiiy asarning tarkibiy qismlari (syujet, konflikt, kompozitsiya va boshqalar), adabiy turlar va janrlar haqidagi masalalarni keng yoritadi. Insoniyat tarixida bo'lgan ijodiy uslublar, adabiy oqimlar, mak-tablar Adabiyot nazariyasi da o'zining aniq ta'rifu tavsifini topali. O'tmish adabiyot bilan hozirgi zamon adabiyoti o'rtasidagi do'imiy vorislik (an'ana va yangilanish) masalalari ham Adabiyot nazariyasi ga aloqadordir. Turli xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bir-birlarini boyitish-dan iborat ijobiy tarixiy jarayonning qonuniyatlarini aniqlash ham Adabiyot nazariyasi ning doimiy o'rganuvchi sohalaridan birini tashkil etadi.

Dunyo xalqlari she'riyatiga xos tizimlar, ularning tuzilishi va shakllari Adabiyot nazariyasi ning bevosita tadqiqot manbaidir. Badiiy adabiyotning o'tmishi, hozirgi ahvoli va istiqboldagi rivojlanish tamoyillarini belgilab berish Adabiyot nazariyasi ning eng muhim vazifasi sanaladi. Sharkda Adabiyot nazariyasi ning yuqorida qayd etilgan barcha muammolarini yaxlit o'rganuvchi maxsus fan sohasi bo'lmagan. Bu masalalar 3 yo'nalishdagi mustaqil sohalar do-irasida olib borilgan. Bular: aruz ilmi, qofiya ilmi va balog'a ilmi, ya'ni badiiy so'z san'atlari haqidagi sohalardan iborat. Shu bois Sharq mumtoz adabi-yotshunosligi tarixiga nazar tashlansa, yuqorida ko'rsatilgan 3 yo'nalishdagi ilmiy manbalar alohida-alohida bayon etilganligi ma'lum bo'ladi. Masalan, Muhammad bin Umar ar-Roduyoniyning „Tarjimon ul-balog'a“, Rashididdin Vat-votning „Hadoiq us-sehr fidaqoiqush-she'r“, Alisher Navoiyning „Mezon ul-avzon“, Bobo'ring „Muxtasar“, Husayn Voiz Koshifiyning „Badoye ul-afkor fi sanoye-ul-ash'or“, Atoullo Husayniyning „Badoye us-sanoye“, Vohid Tabriziyning „Jam'i muxtasar“ kabi asarlarida aruz, qofiya va badiiy san'atlar haqida alohida-aloxdda fikr yuri-tilgan. Sharq adabiy-nazariy ta'limoti asosan she'riyat materialiga asoslangan bo'lib, ularda badiiy nasr, dramaga oid nazariy kuzatishlar uchramaydi. Chunki Sharq mumtoz adabiyotida badiiy nasr va drama janrlari mavjud emas edi. Sharq adabiy-nazariy qarashlari rivojiga Abu Nasr Forobiy „Kalom fish-she'r va al-qavofi“ („She'r va qofiyalar haqida so'z“), „Kitob fil-lug'ot“ („Til haqida kitob“), „She'r san'ati“, Ibn Sino „Uyun-al-Hikma“ kabi asarlari bilan katta hissa qo'shdilar. O'zbek adabiyotshunosligida Adabiyot nazariyasi ga 176oid haqiqiy yaxlit ilmiy asar 20-asr ning 20-yillarida Fitrat tomonidan yaratildi. Uning „Adabiyot qoidalari“ kito-bida badiiy adabiyotning o'ziga xosligi, ijtimoiy tabiati, adabiy tur va

janrlar, syujet, kompozitsiya, badiiy nutq va mahorat masalalari haqida ilk bor yax-lit ma'lumotlar berilgan. Abdurahmon Sa'diyning „Adabiyot nazariyasi“ asari Adabiyot nazariyasi ga oid ilk asarlardan hisoblanadi. Shulardan keyin Adabiyot nazariyasi ga oid ikkinchi asar 1939-yilda I.

Sulton tomonidan yaratildi. Keyinchalik O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan ikki jild-li „Adabiyot nazariyasi“ (1-jild 1978, 2-jild 1979), 1980-yilda I. Sultonning „Adabiyot nazariyasi“ darsliklari chop ettirildi. Adabiyot nazariyasi rivojiga H. Yoqubov, M. Yunusov, M. Qo'shjonov kabi olimlar ham katta hissa qo'shdilar. G'arb adabiyotshunosligida Aristo-telning „Poetika“ asari Adabiyot nazariyasi ga oid asosiy manba sifatida qo'llanilib ke-lindi. 17-18-asrdan boshlab Bualo, Di-dro, Lessing , Gerder, Gyote, Shiller kabi olimu adiblar tomonidan Adabiyot nazariyasi ga oid na-zariy asarlar yaratila boshlandi. 18-asr oxiri — 19-asr boshlarida nemis fayla-suflari Kant, Fixte, Shelling , Gegel va boshqa badiiy adabiyot qonuniyatlarini yaxlit o'rganuvchi Adabiyot nazariyasi yaratishni boshlab berdilar. Rossiyada M. V. Lomonosov, A. N. Radishchev, V. G. Belinskiy, N. G. Chernishevskiy, A. N. Dobrolyubov, A. I. Gersen va boshqa adabiy-nazariy qarashlar rivojiga muayyan hissa qo'shdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)
2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)
3. Qo'g'irchoq teatr tarixi (M. Qodirov, S. Qodirova)
4. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D.Abdullayev, L.D.Usmanova)

Foydalanilgan web-saytlar:

1. Tafakkur.net sayti
2. Ziyouz.com sayti
3. Qomus.info sayti
4. Saviya.uz sayti
5. Shosh.uz sayti
6. Vikipediya
7. Yoair.com sayti